

**TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/30.12.2020.I.16.02 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI

NOSIROVA CHAROS G‘AYRATOVNA

**TO‘QIMACHILIK MAHSULOTLARI BOZORIDA YASHIL
MARKETINGDAN FOYDALANISHNI TAKOMILLASHTIRISH**

08.00.11 – Marketing

**Iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Toshkent – 2025

**Iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati
mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD) по
экономическим наукам**

**Contents of Dissertation Abstract of the Doctor of Philosophy (PhD)
on Economical Sciences**

Nosirova Charos G‘ayratovna

To‘qimachilik mahsulotlari bozorida yashil marketingdan foydalanishni
takomillashtirish..... 3

Носирова Чарос Гайратовна

Совершенствование использования зеленого маркетинга на рынке
текстильной продукции..... 27

Nosirova Charos Gayratovna

Improving the use of green marketing in the textile market 53

E‘lon qilingan ishlar ro‘uxati

Список опубликованных работ
List of published works..... 58

**TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/30.12.2020.I.16.02 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI

NOSIROVA CHAROS G‘AYRATOVNA

**TO‘QIMACHILIK MAHSULOTLARI BOZORIDA YASHIL
MARKETINGDAN FOYDALANISHNI TAKOMILLASHTIRISH**

08.00.11 – Marketing

**Iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Toshkent – 2025

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi Oliy attestatsiya komissiyasida B2024.3.PhD/Iqt4545 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya Toshkent davlat iqtisodiyot universitetida bajarilgan.
Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus va ingliz (rezyume)) Ilmiy kengash web-sahifasi (www.tsue.uz) va "Ziyonet" axborot-ta'lim portalida (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar: **Nazarova Rano Rustamovna**
iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Rasmiy opponentlar: **Eshtayev Alisher Abduganiyevich**
iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Mamurov Samad Igamnazarovich
iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Yetakchi tashkilot: **Toshkent to'qimachilik va yengil sanoat instituti**

Dissertatsiya himoyasi Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.03/30.12.2020.I.16.02 raqamli ilmiy kengashning 2025-yil "____" _____ kuni soat__dagi majlisida bo'lib o'tadi. Manzil:100066, Toshkent shahri, Islom Karimov ko'chasi, 49 uy. Tel.: (99871) 239-01-49; faks: (99871) 239-41-23; e-mail: tdiu@tsue.uz.

Dissertatsiya bilan Toshkent davlat iqtisodiyot universitetining kutubxonasida tanishish mumkin (____raqami bilan ro'yxatga olingan). Manzil:100066, Toshkent shahri, Islom Karimov ko'chasi, 49 uy. Tel.: (99871) 239-01-49; faks: (99871) 239-41-23; e-mail: tdiu@tsue.uz.

Dissertatsiya avtoreferati 2025-yil " " kuni tarqatildi.
(2025-yil " "dagi ____-raqamli reyestr bayonnomasi)

G.Q. Abduraxmanova

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash raisi,
i.f.d., professor

O.D. Djurabayev

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash
kotibi, i.f.d., professor

Sh.A. Allayorov

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash
qoshidagi Ilmiy seminar raisi, i.f.d.,
professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahon iqtisodiyotining globallashuvi sharoitida tabiiy resurslardan samarasiz foydalanish, genetik modifikatsiyalangan mahsulotlar ishlab chiqarishning rivojlanishi, sifatli qishloq xo‘jaligi yerlarining qisqarishi sababli ekologik vaziyatning tobora yomonlashuvi kuzatilmoqda. Jahon banki va Birlashgan Millatlar Tashkilotining Atrof-muhit bo‘yicha dasturi (UNEP) ma‘lumotlariga ko‘ra, yomon ishlab chiqarishning global atrof-muhitga ta‘siri 2023-yilda sezilarli bo‘lib, global CO₂ emissiyasi 40,6 milliard tonnaga yetgan, bu iqlim o‘zgarishining asosiy omili hisoblanadi¹. Shuningdek, dunyodagi hamma tozalanmadan oqava suvlarning qariyb 80 %i tabiiy suv resurslariga qo‘shilib ketmoqda. 2023-yilda sanoat chiqindilaridan chuchuk suv ifloslanishining ortishi qayd etilgan, bu suv sifatining yomonlashishi va mavjud chuchuk suv resurslari qisqarishiga olib kelmoqda. Mavjud ijtimoiy-iqtisodiy vaziyatga javoban dunyodagi korxonalarda o‘z marketing faoliyatini tashkil etishda yangi ekologik yo‘naltirilgan yondashuvlarni ishlab chiqish muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Global ekologik muammolar va geosiyosiy beqarorlik kuchayishi sharoitida kompaniyalar faoliyatiga ekologik yo‘naltirilgan yondashuvlarni ishlab chiqishga qaratilgan ilmiy tadqiqotlarga e‘tibor kuchaymoqda. Yildan yilga ekologik yoki “yashil” marketingga qiziqish nafaqat kompaniya imijini yaxshilash, balki uning barqaror iqtisodiy rivojlanishiga ham hissa qo‘shuvchi noyob mexanizm sifatida ahamiyati ortib bormoqda. Ayniqsa, yengil sanoat korxonalarining jamiyat va atrof-muhit oldidagi mas‘uliyat darajasining ko‘rsatkichi sifatida yashil marketingning ahamiyatini oshirish, yashil tamoyillarga asoslangan marketing vositalarini mahsulotlarni jahon bozorlariga eksport qilishning kuchli vositasi sifatidagi salohiyatini oshirish, shuningdek, kelajak avlodga ekologik barqaror jamiyatni qoldirish vazifalari muhim ahamiyat kasb etmoqda.

O‘zbekiston yashil iqtisodiyot tamoyillariga asoslangan iqtisodiy tizimni joriy etish bosqichida bo‘lib, mazkur tamoyillar nafaqat yengil sanoat tarmoqlarida, balki iqtisodiyotning hamma bo‘g‘inlarida tatbiq etilmoqda. Xususan, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025 yil 30-yanvardagi PF-16-sonli “O‘zbekiston — 2030” strategiyasini “Atrof-muhitni asrash va “yashil iqtisodiyot” yilida amalga oshirishga oid davlat dasturi to‘g‘risida”gi farmonida “tabiiy resurslarni tejash va ulardan oqilona foydalanish, ekologik barqarorlikni ta‘minlash”, “yashil iqtisodiyot” tamoyillarini keng joriy qilish, iqtisodiyotni iqlim o‘zgarishiga moslashtirishga qaratilgan loyihalarni barqaror moliyalashtirish” singari ustivor vazifalar belgilab berilgan. Shuningdek, O‘zbekistonda ifloslantiruvchi moddalar chiqindilarini kamaytirish va ishlab chiqarishning ekologik xavfsizligini oshirishga qaratilgan korxonalar uchun ekologik standartlar joriy etilmoqda. Mazkur holatlar O‘zbekiston to‘qimachilik sanoatida “yashil marketing” strategiyalaridan foydalanishni takomillashtirish asosida aholi uchun barqaror iste‘molni targ‘ib qiluvchi marketing vositalaridan foydalanish va ekologik mas‘uliyatni oshirishga qaratilgan strategik yo‘nalishlarni ishlab chiqishni taqoza etmoqda.

¹ UNEP. Emissions Gap Report 2023. <https://www.unep.org/resources/emissions-gap-report-2023>

Dissertatsiya tadqiqoti O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 30-yanvardagi PF-16-sonli “O‘zbekiston — 2030” strategiyasini “Atrof-muhitni asrash va “yashil iqtisodiyot” yilida amalga oshirishga oid davlat dasturi to‘g‘risida”gi, 2024-yil 1-maydagi PF-71-sonli “To‘qimachilik va tikuv-trikotaj sanoatini rivojlantirishni yangi bosqichga olib chiqish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi, 2023-yil 2-sentabrdagi PF-155-sonli “To‘qimachilik sanoatini moliyaviy qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi, 2020-yil 5-maydagi PF-5989-sonli “To‘qimachilik va tikuv-trikotaj sanoatini qo‘llab-quvvatlashga doir kechiktirib bo‘lmaydigan chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi farmonlari, Vazirlar Mahkamasining 2024-yil 11-maydagi 274-sonli “Respublikada to‘qimachilik, charm-poyabzal va elektrotexnika mahsulotlari eksportini tartibga solish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi, 2022-yil 30-sentabrdagi 556-sonli “To‘qimachilik va tikuv-trikotaj korxonalarida chuqur qayta ishlash va yuqori qo‘shilgan qiymatli tayyor mahsulotlar ishlab chiqarish hamda ularning eksportini moliyaviy qo‘llab-quvvatlashni yanada kengaytirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarorlari hamda to‘qimachilik sanoatini rivojlantirish sohasiga oid boshqa me‘yoriy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishi ustuvor yo‘nalishlariga mosligi. Mazkur dissertatsiya respublikada fan va texnologiyalar rivojlanishining I. “Demokratik va huquqiy jamiyatni ma‘naviy-ahloqiy va madaniy rivojlantirish, innovatsion iqtisodiyotni shakllantirish” ustuvor yo‘nalishiga muvofiq bajarilgan.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. Tovar va xizmatlar bozorida yashil marketingdan foydalanishni takomillashtirish bo‘yicha olib borilayotgan ilmiy tadqiqot ishlari marketingning zamonaviy yutuqlari va tamoyillari, shuningdek, mazkur sohada xoriijiy tadqiqotlar tajribasiga asoslanadi. Xususan, bu sohada ko‘plab ilmiy tadqiqot ishlari xoriijiy olimlar Philipp Kotler, John Grant, Michayel Jay Polonsky, Kaman Leye, Ken Peattiye, Rosa Maria Dangelico, Daniyele Vocalelli, Deepa Manokaran, Otto Sharmer, Jacquyelyn Ottman, David Griffith, Ruth Bolton, Arne Nygaard² va boshqalar tomonidan o‘rganilgan. Bunday tadqiqot ishlarida yashil marketingni bozorda qo‘llashning nazariy asoslari, barqaror rivojlanishni ta‘minlash va to‘qimachilik sanoati xalqaro bozorida

² Hermawan Kartajaya, Iwan Setiawan, Philip Kotler. *Marketing 3.0: From Products to Customers to the Human Spirit*. 2010.; Grant, John. *The Green Marketing Manifesto*. 2007, John Wiley & Sons Ltd., Hoboken.; Grant, J. (2008), "Green marketing", *Strategic Direction*, Vol. 24 No. 6, pp. 25-27.; Polonsky, Michael Jay. "An introduction to green marketing." *Global Environment: Problems and Policies* 2.1 (2008): 1-10.; Lee, Kaman. "Opportunities for green marketing: young consumers." *Marketing intelligence & planning* 26.6 (2008): 573-586.; Ken Peattie. (2016), "The Marketing Book". Routledge, 7th Edition; Rosa Maria Dangelico, Daniele Vocalelli, "Green Marketing": An analysis of definitions, strategy steps, and tools through a systematic review of the literature, *Journal of Cleaner Production*, Volume 165, 2017, Pages 1263-1279, ISSN 0959-6526; Deepa Manokaran. *Role of green marketing approaches in consumer buying behaviour*. 2024; C. Otto Sharmer. *Theory U: Leading from the Future as It Emerges*. 2009.; Jacquelyn A. Ottman. *The New Rules of Green Marketing: Strategies, Tools, and Inspiration for Sustainable Branding*. 2011; David A. Griffith. *Connecting Sustainable Marketing and International Marketing Strategy Standardization/Adaptation: Research Opportunities*. *Journal of Sustainable Marketing*, 2(2), 47-51, 2021; Bolton, R. (2021). *The Convergence of Sustainability and Marketing: Transforming Marketing to Respond to a New World*. *Australasian Marketing Journal*, 0(0), 1-6.; Arne Nygaard. *Backpage Green Marketing and Entrepreneurship*. Springer Nature, 2024.

raqobatbardoshlikni oshirish singari muhim masalalar bo'yicha ilmiy-nazariy asoslarni ishlab chiqishga asos sifatida xizmat qiladi.

Korxonalarda yashil marketing elementlaridan foydalanish, ishlab chiqarishning atrof-muhitga ta'sirini yumshatishda yashil marketing tamoyillarini joriy etishni to'liq va batafsil o'rganishga bag'ishlangan ilmiy ishlar keyingi yillarda O.Kozlova, G.Bagiyev, V.Cherenkov, T.Pimonenko, M.Kanunikova, M.Sigova, Ya.Strijova, D.Zayseva, I.Yarv, L.Gerasimova, M.Bronnikov, M.Zintsova, D.Yavakayeva, Ye.Bikmetov³ singari yaqin xorij va MDH mamlakatlari olimlari tomonidan keng tadqiqotlar amalga oshirilgan.

O'zbekistonda yashil marketingdan foydalanish, uning rivojlanishi va korxonalarining iqtisodiy ko'rsatkichlariga ta'siri bo'yicha qator ilmiy tadqiqot loyihalari amalga oshirilgan. Jumladan, korxonalar faoliyatida marketing elementlaridan samarali foydalanishga oid yondashuvlarni takomillashtirish masalalari A.Bekmurodov, M.Qosimova, Sh.Ergashxodjayeva, M.Ikromovning⁴ ishlarida, korxonalar faoliyatiga yashil marketingni joriy etish strategiyalari, mahsulotning xalqaro bozorlarda raqobatbardoshligini oshirishdagi roli va to'qimachilik sanoatida barqaror rivojlanishni qo'llab-quvvatlash mexanizmlariga oid masalalar M.Boltabayev, B.Tursunov, G.Ostonakulova, Z.Hakimov, B.Safarov, A.Sultonov, S.Yusupov, Z.Davronova⁵ va boshqalarning ilmiy-tadqiqot ishlarida ko'rib chiqilgan.

³ Козлова, Оксана Александровна. "Экологический маркетинг: новый концептуальный подход и стратегический потенциал производителей." Вестник Омского университета. Серия «Экономика» 1 (2011): 146-155.; Багиев, Георгий Леонидович, and В. И. Черенков. "Маркетинг для обеспечения устойчивого развития: сущность и логика становления." *Проблемы современной экономики* 3 (67) (2018): 142-148.; Пимоненко, Тетяна Володимирівна, Олексій Валентинович Люльов, and Олена Юріївна Чигрин. "Маркетинг зелених інвестицій: механізм колаборації між основними стейкхолдерами." (2018).; Канунікова, Маргарита Ігоревна. «Зелений» маркетинг як «зелений» путь продвижения товаров. Тренды развития современного общества: управленческие, правовые, экономические и социальные аспекты. 2020.; Канунікова, Маргарита Ігоревна, Татьяна Юрьевна Кротенко, and Ольга Валентиновна Лесникова. "Инструменты инновационного управления: «зеленый» маркетинг для устойчивого развития гостиничного бизнеса." *Экономика. Налоги. Право* 14.4 (2021): 103-111.; Сигова МВ, Круглова ИА. «Зеленая» экономика как фактор экономической безопасности. *Известия Санкт-Петербургского государственного экономического университета*. 2016(3 (99)):47-53.; Стрыжова, Я. А., and Е. А. Сучкова. "Зеленый маркетинг." *Приоритетные научные направления: от теории к практике* 32-2 (2016): 149-153.; Ярв, И. В., and Л. А. Герасимова. "«Зеленый маркетинг» или как рекламировать экобренд." *Актуальные проблемы авиации и космонавтики* 1.11 (2015): 772-774.; Бородин, Юрий Геннадьевич, and Елена Ивановна Хабарова. "Маркетинг «зеленых» технологий." *Практический маркетинг* 5 (2010): 13-17.; Зайцева, Дарья С. "Экологический маркетинг: тенденции и перспективы." Вестник Кемеровского государственного университета. Серия: политические, социологические и экономические науки 2 (2) (2016): 55-60.; Зинцова Марина Владимировна, Воронцова Маргарита Александровна, Зинцов Кирилл Сергеевич Реализация концепции экологического маркетинга // *Российский внешнеэкономический вестник*. 2019. №8; Явакаева, Даяна Радионовна. "Зелёный маркетинг." наука и образование в условиях мировой нестабильности: проблемы, новые этапы развития. 2022.; Бикметов, Е. Ю., et al. "Зеленый маркетинг как инструмент продвижения технологий ветровой энергетики." *Дискуссия* 2 (111) (2022): 38-48.

⁴ A.Sh.Bekmurodov, M.S.Kosimova, Sh.J.Ergashxodjayeva. *Strategik marketing. O'quv qo'llanma*. -T.: TDIU, 2010.-220 b.; Ergashxodjayeva Sh.Dj., Qosimova M.S., Yusupov M.A. *Marketing asoslari*. Darslik. -. T.: «IQTISODIYOT», 2019. - 304; Sh.J.Ergashxodjayeva. *Innovatsion marketing*. Darslik. TDIU, 2017. -191; Мурат Акрамович Икрамов, Ксения Васильевна Чернышева. *Формирование бренда в маркетинговых коммуникациях. Современный менеджмент: проблемы и перспективы*, 2022, 241-246.

⁵ Boltabayev M. O'zbekiston Respublikasi to'qimachilik sanoati eksport imkoniyatlarini rivojlantirishda marketing strategiyasi: iqt. fan. dok. ilm. dar. olish uchun yozilgan diss. T.: 2005. - 342 b.; Tursunov B. To'qimachilik korxonalarida ishlab chiqarish quvvatlaridan foydalanishni boshqarish samaradorligini oshirish yo'llari. i.f.b. falsafa doktori (PhD) ilmiy daraj. olish uchun yozilgan avtoreferat. Toshkent: TDIU, 2019. - 24 b.; G.Ostonakulova. *The Role of Eco-Marketing in Eco-Friendly Furniture and Eco-Friendly Construction. Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot jurnali*. 2024; Hakimov Z. *Yengil sanoat korxonalarini rakobatbardoshligini oshirish yo'llari*. Monografiya, T.Iqtisod.

Biroq, yuqorida tilga olingan iqtisodchilarning ilmiy tadqiqotlarida to'qimachilik sanoatida yashil marketingni qo'llash tadqiqot obyekti sifatida ko'rilmagan. Shuning uchun mazkur tadqiqot ishi to'qimachilik korxonalarining eksport salohiyatini oshirishda yashil marketing elementlaridan foydalanish masalasini o'rganishga bag'ishlangan bo'lib, uning dolzarb tadqiqot mavzusi ekanligini belgilaydi.

Tadqiqotning dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi. Mazkur tadqiqot ishi Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti ilmiy tadqiqot ishlari rejasiga muvofiq ilmiy loyihalar doirasida tayyorlangan.

Tadqiqotning maqsadi to'qimachilik mahsulotlari bozorida yashil marketingdan foydalanishni takomillashtirishga qaratilgan ilmiy taklif va tavsiyalarni ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqot vazifalari:

yashil marketingning nazariy, uslubiy va huquqiy asoslarini o'rganish asosida yashil marketing iqtisodiy terminiga mualliflik yondashuvini shakllantirish;

xorijiy va mahalliy ilmiy adabiyotlarni tahlil qilish asosida yashil mahsulot ta'rifini atroflicha yoritib berish;

to'qimachilik korxonalarining mahsulotlarni sotish salohiyatini oshirish uchun yashil marketingdan foydalanish bo'yicha xorijiy tajribani o'rganish va ilg'or xorijiy tajribadan foydalanish bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqish;

mahalliy to'qimachilik korxonalarini tomonidan yashil marketingni amalga oshirish tahlili asosida mavjud muammolarni aniqlash;

to'qimachilik korxonalarining eksport hajmi va raqobatbardoshligiga yashil marketingning ta'sirini aniqlash uchun empirik tadqiqot o'tkazish;

barqarorlik va ekologik javobgarlikni oshirishga qaratilgan global ekologik muammolar sharoitida kompaniyalarning marketing strategiyalarini tahlil qilish;

O'zbekistonda to'qimachilik mahsulotlari sotuv ko'rsatkichlarini oshirish uchun yashil marketing strategiyalaridan foydalanish va takomillashtirish bo'yicha taklif va tavsiyalar ishlab chiqish.

Tadqiqot obyekti sifatida to'qimachilik sanoatida faoliyat yuritayotgan Farg'ona viloyati to'qimachilik korxonalarini tanlangan.

Tadqiqot predmetini to'qimachilik mahsulotlari bozorida yashil marketingdan foydalanishni takomillashtirish jarayonida yuzaga keluvchi iqtisodiy munosabatlar tashkil etadi.

Tadqiqot usullari. Dissertatsiya oldiga qo'yilgan vazifalarni hal etishda ijtimoiy-iqtisodiy hodisalarning tizimli tahlili, iqtisodiy-statistik tahlil, mijozlar anketalari tahlili, ma'lumotlarni nazorat qilish, kuzatish, korrelyatsion-regressiya ekonometrik tahlili va taqqoslash usullaridan foydalanilgan.

2017.; Safarov, Bakhtiyor, and Gulhayo Abdusaidova. "Natural Language Processing of Cognitive Metaphors in Eco-Marketing." YASHIL IQTISODIYOT VA TARAQQIYOT 2.8 (2024). Sultonov A. To'qimachilik sanoati korxonalarida ishlab chiqarishni diversifikatsiyalashni boshqarish samaradorligini oshirish: i.f.b. falsafa doktori... dissertatsiyasi avtoreferati. - T.:TDIU, 2017. - 146 b., Yusupov S. Kuchli raqobat sharoitida O'zbekiston to'qimachilik sanoati korxonalarini rivojlantirish strategiyalari. i.f.b. falsafa doktori (PhD) ilmiy daraj. olish uchun yozilgan avtoreferat. - Toshkent: TDIU, 2018.-24b.; Z.Davronova. A study of green marketing practices in the retail industry: Advantages and disadvantages. Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot jurnali. 2024.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

uslubiy yondashuvga ko'ra "Yashil marketing" tushunchasi biznes faoliyatini barqarorlik, resurslardan oqilona foydalanish va tabiatga salbiy ta'sirni kamaytirish maqsadida atrof-muhitga nisbatan javobgarlik asosida yuritishga qaratilgan ekologik toza mahsulotlar yaratish, ularni ilgari surish va sotishda ekologik barqarorlik tamoyillariga tayangan holda mahsulot yoki xizmatlar marketingi jarayonida ekologik muammolarni hal qilishga yo'naltirilgan faoliyatlar, usullar, tartiblar va harakatlar majmuasi sifatida takomillashtirilgan;

korxonaning yashil marketing strategiyalari hisoblangan eko-branding ($X_1=14.495$), eko-reklama ($X_2=11.388$), eko-sertifikatlashning ($X_3=1.503$) yuqori ijobiy va eko-mahsulotlar soni ortishining ($X_4=-0.427$) past salbiy ta'sirlarini inobatga olgan holda eksport salohiyatini oshirishning strategik imkoniyatlari aniqlangan;

mahalliy to'qimachilik korxonalarini uchun barqaror ishlab chiqarish amaliyotiga qaratilgan "Cho'lga mos paxta" ekologik tashabbusi, "Ildizlardan matoga" interaktiv ma'lumotlar bazasi, "to'qimachilik mahsulotlari yashil pasporti" dasturlari yordamida mahalliy va global bozorlarda korxonalar raqobatbardoshligini ta'minlash usullari asoslangan;

milliy to'qimachilik sanoatida yashil to'qimachilik mahsulotlar eksportini "uzecotextile" milliy ekosertifikatsiya tizimi, ekologik sanoat zonalarini yaratish, "yashil brend" va "eko-madaniy turizm" tashabbuskor strategik yo'nalishlar asosida oshirish asoslangan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

yashil marketingning ilmiy-nazariy asoslari va mohiyati, qo'llanilishi va to'qimachilik korxonalarining eksport salohiyatiga ta'siri yoritib berilgan;

yashil marketingning mohiyati va uning zamonaviy global ekologik muammolar sharoitida to'qimachilik korxonalarining raqobatbardoshligi va ekologik mas'uliyatini oshirishdagi roli tahlil qilingan;

mahalliy va xalqaro bozorlarda yashil marketingni joriy etishda kompaniyalar duch keladigan dolzarb muammolar va ularning sabablari o'rganilgan hamda ularni bartaraf etish bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqilgan;

kompaniyalar tomonidan yashil marketingdan foydalanish bo'yicha xorijiy amaliyot, jumladan, jahondagi yetakchi to'qimachilik brendlarining ekologik mas'uliyat va barqaror rivojlanish sohasidagi tajribasi tahlil qilingan;

O'zbekistondagi to'qimachilik korxonalarida yashil marketingni joriy etishga salbiy ta'sir ko'rsatayotgan dolzarb muammolar aniqlanib, ularni bartaraf etish yuzasidan aniq takliflar ishlab chiqilgan;

an'anaviy marketing strategiyalari bilan bir qatorda mavjud yashil marketing strategiyalarining mazmuni yoritib berilgan va ularning amaliyotda qo'llanilishi tahlil qilingan;

korxonalar mahsulotlarini eksport qilishda eko-branding, eko-reklama, eko-sertifikatlar va ekologik toza mahsulotlar soni singari omillarning eksport ko'rsatkichlariga ta'siri ekonometrik tahlil qilingan;

tadqiqot obyekti misolida yashil marketing strategiyasini korxonalar faoliyatiga joriy etish bosqichlari aniqlangan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi. Dissertatsiya tadqiqotida olingan ilmiy natijalarning ishonchliligi ishda qo‘llanilgan uslubiy yondashuv va bu usullarning maqsadga muvofiqligi, axborot bazasining rasmiy manbalar, xususan, O‘zbekiston Respublikasi Savdo-sanoat palatasi, “O‘zto‘qimachilik sanoat” uyushmasi va tadqiqot obyektining rasmiy ma’lumotlaridan olinganligi, shuningdek, xulosa, taklif va tavsiyalarning amalda sinovdan o‘tkazilganligi hamda to‘qimachilik korxonalarining eksport salohiyatini oshirish uchun yashil marketingdan foydalanish bo‘yicha olingan natijalarning tegishli tashkilotlar tomonidan ma’qullanganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati to‘qimachilik korxonalarini raqobatbardoshligini oshirishda yashil marketingdan foydalanishning konseptual jihatlarini chuqur ilmiy tahlil qilishdan iborat. Tadqiqot yashil marketing sohasidagi nazariy va amaliy bilimlarni kengaytiradi, shuningdek, kelajakdagi ilmiy maqolalar va tadqiqotlarda foydalanish mumkin bo‘lgan natijalar, xulosalar va tavsiyalar ishlab chiqishda ilmiy asos vazifasida namoyon bo‘ladi.

Ilmiy ishning amaliy ahamiyati to‘qimachilik korxonalarini raqobatbardoshligini oshirish, xorijiy investitsiyalarni jalb etish va barqaror rivojlanish strategiyasini amalga oshirish uchun yashil marketingni joriy etishga qaratilgan amaliy natijalar, xulosa va tavsiyalarga asoslanadi. Tadqiqot natijalaridan oliy o‘quv yurtlarida ta’lim dasturlarini ishlab chiqishda, darsliklar va o‘quv qo‘llanmalar tayyorlashda, shuningdek, “Marketing”, “Tarmoqlar va sohalar marketingi”, “Yashil marketing”, “Reklama ishi”, “Barqaror rivojlanish iqtisodiyoti”, “Xalqaro biznes”, “Atrof-muhitni boshqarish” kabi fanlarni o‘qitishda foydalanish mumkin.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. To‘qimachilik mahsulotlari bozorida yashil marketingdan foydalanishni takomillashtirish bo‘yicha ishlab chiqilgan ilmiy takliflar asosida:

uslubiy yondashuvga ko‘ra “Yashil marketing” tushunchasi biznes faoliyatini barqarorlik, resurslardan oqilona foydalanish va tabiatga salbiy ta’sirni kamaytirish maqsadida atrof-muhitga nisbatan javobgarlik asosida yuritishga qaratilgan ekologik toza mahsulotlar yaratish, ularni ilgari surish va sotishda ekologik barqarorlik tamoyillariga tayangan holda mahsulot yoki xizmatlar marketingi jarayonida ekologik muammolarni hal qilishga yo‘naltirilgan faoliyatlar, usullar, tartiblar va harakatlar majmuasi sifatida takomillashtirish taklifi O‘zto‘qimachilik sanoat uyushmasi tomonidan qabul qilingan (O‘zto‘qimachilik sanoat uyushmasining 2025-yil 31-yanvardagi 04/17-220-sonli ma’lumotnomasi). Mazkur taklifni joriy etish natijasida jahon va mahalliy tekstil bozorlarida raqobatbardoshlikni va sotuv ko‘rsatkichlarini oshirish, energiya tejamkor texnologiyalar va xavfsiz xomashyoni joriy etish orqali atrof-muhitga yetkaziladigan zararni kamaytirish, shuningdek, ijtimoiy-iqtisodiy sharoitlarni yaxshilash hamda sanoatning uzoq muddatli barqaror rivojlanishiga zamin yaratadi;

korxonaning yashil marketing strategiyalari hisoblangan eko-branding ($X_1=14.495$), eko-reklama ($X_2=11.388$), eko-sertifikatlashning ($X_3=1.503$) yuqori ijobiy va eko-mahsulotlar soni ortishining ($X_4=-0.427$) past salbiy ta’sirlarini inobatga olgan holda eksport salohiyatini oshirishning strategik yo‘nalishlari

“O‘zto‘qimachilik sanoat” uyushmasi hamda “Hamza Expo Art Textile” MCHJlar faoliyatida foydalanilgan (O‘zto‘qimachilik sanoat uyushmasining 2025-yil 31-yanvardagi 04/17-220-sonli ma‘lumotnomasi, “Hamza Expo Art Textile” mas‘uliyati cheklangan jamiyatining 2025-yil 21-yanvardagi 47-sonli ma‘lumotnomasi). Natijada korxonalar tomonidan ekobrending va ekoreklama tashabbuslari joriy qilinganidan boshlab bir chorak davomida ichki bozordagi savdo ulushi 4 %ga, tashqi bozorlarga eksport ko‘rsatkichi esa 3 %ga o‘shishi kuzatilgan;

yashil marketingni rag‘batlantiruvchi mahalliy to‘qimachilik korxonalari uchun barqaror ishlab chiqarish amaliyotlari hisoblangan “Cho‘lga mos paxta” ekologik tashabbusi, “Cho‘lga mos paxta” konsepsiyasi, “Ildizlardan matoga” interaktiv ma‘lumotlar bazasi, “to‘qimachilik mahsulotlari yashil pasporti” dasturlari asosida mahalliy va global bozorlarda korxonalar raqobatbardoshligini ta‘minlash bo‘yicha taklif “O‘zto‘qimachilik sanoat” uyushmasi hamda “Hamza Expo Art Textile” MCHJlar faoliyatida foydalanilgan (O‘zto‘qimachilik sanoat uyushmasining 2025-yil 31-yanvardagi 04/17-220-sonli ma‘lumotnomasi, “Hamza Expo Art Textile” mas‘uliyati cheklangan jamiyatining 2025-yil 21-yanvardagi 47-sonli ma‘lumotnomasi). Mazkur taklifni joriy etish natijasida jahon va mahalliy tekstil bozorlarida raqobatbardoshlik va sotuv ko‘rsatkichlarini oshirish, energiya tejankor texnologiyalar va xavfsiz xomashyoni joriy etish orqali atrof-muhitga yetkaziladigan zararni kamaytirish, shuningdek, ijtimoiy-iqtisodiy sharoitlarni yaxshilash hamda sanoatning uzoq muddatli barqaror rivojlanishiga zamin yaratish imkonini bergan;

milliy to‘qimachilik sanoatida yashil to‘qimachilik mahsulotlari eksportini “uzecotextile” milliy ekosertifikatsiya tizimi, ekologik sanoat zonalarini yaratish, “yashil brend” va “eko-madaniy turizm” tashabbuskor strategik yo‘nalishlar asosida oshirish bo‘yicha taklif “O‘zto‘qimachilik sanoat” uyushmasi hamda “Hamza Expo Art Textile” MCHJlar faoliyatida foydalanilgan. (O‘zto‘qimachilik sanoat uyushmasining 2025-yil 31-yanvardagi 04/17-220-sonli ma‘lumotnomasi, “Hamza Expo Art Textile” mas‘uliyati cheklangan jamiyatining 2025-yil 21-yanvardagi 47-sonli ma‘lumotnomasi). Natijada ishlab chiqarish jarayonlarini optimallashtirish hamda xomashyo va energiya xarajatlarini kamaytirishga erishilib, eksport qilinadigan mahsulotlarning marjasini 12 %ga oshirdi. Bundan tashqari, yashil marketing strategiyasini joriy etish xorijiy hamkorlarning qiziqishini oshirib, Germaniya, Vengriya va Rossiya Federatsiyasi singari yangi bozorlar ochilishi va eksport geografiyasi kengayishiga olib kelgan. Shuningdek, “Hamza Expo Art Textile” MCHJning mahalliy va xalqaro bozorlarda o‘z mahsulotlariga talabni 2023-yilga nisbatan 2024-yilda Yevropa (Polsha) va Osiyo (Xitoy) kompaniyalari tomonidan yillik talabning 22 %ga o‘shishi ta‘minlangan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Tadqiqot natijalari 8 ta, jumladan 2 ta respublika va 6 ta xalqaro ilmiy-amaliy konferensiyalarda muhokamadan o‘tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e‘lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha jami 16 ta ilmiy ish, shu jumladan, O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish bo‘yicha tavsiya etgan ilmiy nashrlarda 11 ta ilmiy maqola, jumladan, 4 tasi

respublika va 7 tasi xorijiy jurnallarda, shundan 3 tasi Scopus ilmiy nashrlar ma'lumotlar bazasida indekslanadigan konferensiya to'plamlarida chop etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya ishi kirish, 3 ta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va ilovalardan iborat. Dissertatsiyaning umumiy hajmi 142 betni tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida ilmiy tadqiqotning dolzarbligi va zarurati asoslangan, tadqiqotning maqsadi va vazifalari, obyekt va predmeti tavsiflangan, respublikada fan va texnologiyalar rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi ko'rsatilgan, tadqiqotning ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon qilingan, olingan natijalarning ilmiy-amaliy ahamiyati ochib berilgan, tadqiqot natijalarini amaliyotga joriy qilish, nashr etilgan ishlar va dissertatsiya tuzilishi bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning **“To'qimachilik mahsulotlari bozorida yashil marketingdan foydalanishning ilmiy-nazariy asoslari”** nomli birinchi bobida yashil marketingning nazariy va huquqiy asoslari tadqiq etilib, “yashil marketing”, “ekologik marketing” tushunchalarining iqtisodiy mohiyatiga mualliflik yondashuvlari taklif etilgan. Shuningdek, mazkur bobda ekologik toza to'qimachilik mahsulotining konseptual va fundamental asoslari ishlab chiqilgan.

Ba'zi adabiyotlarda yashil marketing va ekomarketing tushunchalari sinonim sifatida qjo'llaniladi. Biroq aslida bu terminlar o'zaro almashtirilib qjo'llansa-da, ularning o'rtasida quyidagi farqlar mavjud (1-rasm).

Yashil va ekologik marketingning yuqorida keltirilgan farqlaridan va mavzuga oid turli adabiyotlardan kelib chiqib, ekologik marketingning quyidagi mualliflik ta'rifi ishlab chiqilgan: “Ekologik marketing yoki eko-marketing” deganda atrof-muhit barqarorligini hisobga olgan holda mahsulot va xizmatlarni ishlab chiqish, ilgari surish va tarqatishga hamda atrof-muhitga zararni minimallashtirishga qaratilgan keng qamrovli boshqaruv jarayoni tushuniladi.

Qo'llanish doirasi va urg'u	<ul style="list-style-type: none">• Yashil marketing kengroq qamrovga ega bo'lib, atrof-muhit uchun javobgarlikning barcha jihatlarini qamrab oladi, ekomarketing esa tor doirada ekologik muammolarga qaratilgan
Qo'llanish auditoriyasi	<ul style="list-style-type: none">• Eko-marketing, ayniqsa, ekologik ta'sir haqida qayg'uradigan ko'proq o'ziga xos auditoriyani maqsad qilsa, yashil marketing umumiy barqarorlikka qiziqqan kengroq auditoriyani jalb qiladi
Qo'llanilishi	<ul style="list-style-type: none">• Yashil marketing energiya samaradorligi, chiqindilarni boshqarish va barqaror manbalar bilan bog'liq strategiyalarni o'z ichiga oladi, ekomarketing esa mahsulotning ekotizimlar va tabiiy resurslarga bevosita ta'siriga alohida e'tibor qaratadi

1-rasm. Yashil va eko-marketingning o'zaro farqlanishi⁶

⁶ Muallif ishlanmasi

Yashil marketingni o'rganishga bag'ishlangan ko'plab ilmiy tadqiqotlarni bibliografik tahlil qilgan holda yashil marketing tushunchasiga mualliflik ta'rifi ishlab chiqilgan. Uslubiy yondashuvga ko'ra "Yashil marketing" tushunchasi biznes faoliyatini barqarorlik, resurslardan oqilona foydalanish va tabiatga salbiy ta'sirni kamaytirish maqsadida atrof-muhitga nisbatan javobgarlik asosida yuritishga qaratilgan ekologik toza mahsulotlar yaratish, ularni ilgari surish va sotishda ekologik barqarorlik tamoyillariga tayangan holda mahsulot yoki xizmatlar marketingi jarayonida ekologik muammolarni hal qilishga yo'naltirilgan faoliyatlar, usullar, tartiblar va harakatlar majmuasi sifatida o'rganilishi lozim.

Shu bilan birga, mahalliy ilmiy adabiyotlar va qonunchilik bazalarida to'qimachilik sanoatida ekologik toza mahsulot atamasining konseptual va fundamental asoslari yoritilmagan. Shu maqsadda mazkur tadqiqot ishida muallif bu bo'shliqni to'ldirish uchun ekologik toza mahsulot to'qimachilik sanoatida aynan qanday mahsulotlarga nisbatan ishlatilishi va uning mahalliy kontekstda qanday savollarga javob berishi kerakligini tadqiq qilgan.

Konseptual asoslar ekologik toza to'qimachilik mahsulotlarini ishlab chiqarishning ilmiy asoslarini yaratadi, fundamental asos esa uning amalga oshirilishini ta'minlaydi. Ular birgalikda barqaror va raqobatbardosh to'qimachilik sektorini rivojlantirishga qaratilgan tizimli yondashuvni shakllantiradi.

Ekologik toza to'qimachilik mahsulotlarining konseptual va fundamental asoslarini ishlab chiqish mahalliy to'qimachilik sanoatiga xalqaro standartlarga javob beradigan barqaror va yashil ishlab chiqarish amaliyotiga o'tish imkonini beradi. Natijada, tashabbus jahon bozorida raqobatbardoshlikni oshirish, eksport ko'rsatkichlarini oshirish, energiya tejamkor texnologiyalar va xavfsiz xomashyoni joriy etish orqali atrof-muhitga yetkaziladigan zararni kamaytirishni, shuningdek, ijtimoiy-iqtisodiy sharoitlarni yaxshilashni ta'minlaydi, sanoatning barqaror rivojlanishi uchun uzoq muddatli zamin yaratadi.

Mavzuga oid xorijiy va mahalliy olimlarning ilmiy ishlarini bibliografik tahlil qilish asosida ekologik toza to'qimachilik mahsulotlariga quyidagi mualliflik tarifi ishlab chiqilgan:

Ekologik toza to'qimachilik mahsulotlari – ishlab chiqarish, foydalanish va utilizatsiya qilishda atrof-muhit va inson salomatligiga salbiy ta'sirni kamaytiruvchi, barqaror rivojlanish tamoyillariga mos keluvchi va tabiiy resurslarni saqlashga hissa qo'shuvchi to'qimachilik mahsulotlari.

Ekologik toza mahsulot an'anaviy usulda ishlab chiqarilgan mahsulotlardan turli jihatlariga ko'ra farq qilishi bilan birga ko'plab o'xshashliklarga ham ega (1-jadval).

Umuman, O'zbekistonda to'qimachilik korxonasida va ularni nazorat qiluvchi organlarda ekologik toza mahsulot nima ekanligi, mahsulotni ekologik toza maqomga chiqarish uchun qanday talablarga javob berish kerakligi to'g'risida hech qanday ma'lumot keltirilmagan. Shu maqsadda, mamlakatda to'qimachilik sanoatini nazoratini amalga oshiruvchi davlat organlari uchun ekologik toza to'qimachilik mahsulotining fundamental asoslari, ya'ni nizomini ishlab chiqish lozim topilgan.

Ekologik toza mahsulot va an'anaviy tarzda ishlab chiqarilgan mahsulotlar o'rtasidagi farqlar⁷

Mezon	Ekologik toza mahsulotlar	An'anaviy tarzda ishlab chiqarilgan mahsulotlar
Xomashyo	Organik, qayta ishlangan yoki tabiiy xom ashyolardan foydalanish (organik paxta, zig'ir, kanop, qayta ishlangan polyester).	An'anaviy xom ashyolardan, shu jumladan pestitsidlar va kimyoviy moddalar yordamida o'stirilgan yoki ishlab chiqarilgan sintetik materiallardan foydalanish
Ishlab chiqarish jarayoni	Ekologik toza texnologiyalar: chiqindilarni minimallashtirish, suv va energiya sarfini kamaytirish, chiqindilarni kamaytirish.	Yuqori resurs iste'moli, katta miqdordagi chiqindilar va atrof-muhitga emissiyasi bilan an'anaviy texnologiyalardan foydalanish
Kimyoviy moddalar	Zaharli kimyoviy moddalar minimal yoki yo'q. Sertifikatlangan ekologik toza bo'yoqlar va pardoqlash moddalaridan foydalanish.	Atrof-muhitga zarar yetkazadigan kimyoviy bo'yoqlar, oqartirgichlar va boshqa moddalarni keng qo'llash
Sertifikatlash	Mahsulotlarning ekologik tozaligini tasdiqlovchi xalqaro sertifikatlarning (GOTS, OEKO-TEX, Bluesign) mavjudligi	Odatda sertifikatlash mavjud emasligi yoki ekologik jihatlarni hisobga olmaydigan standartlardan foydalanish.
Chidamlilik	Mahsulot sifati va chidamliligiga, qayta ishlanishiga yoki xavfsiz utilitatsiyasiga e'tibor qaratadi	Mahsulotlar kamroq bardoshli, ommaviy ishlab chiqarishga yo'naltirilgan va arzon bo'ladi.
Atrof-muhitga ta'siri	Uglerod gazlari minimallashtirilgan, tuproq, suv va havo ifloslanishini kamaytirilgan bo'ladi	Atrof-muhit ifloslanishining yuqori darajasi, jumladan CO ₂ emissiyasi, zaharli suv ifloslanishi va ekotizimning buzilishi.
Ijtimoiy javobgarlik	Axloqiy me'yorlarni hisobga olish: adolatli ish haqi, xavfsiz mehnat sharoitlari	Kam maoshli mehnat va xavfli mehnat sharoitlari, ayniqsa rivojlanayotgan mamlakatlarda mumkin bo'lgan ta'sir.


Taklif etilayotgan Nizom kelajakda to'qimachilik sanoati korxonalarini yashillik tamoyillariga targ'ib qilib, ekologik toza to'qimachilik mahsulotining minimum standartlarini belgilab beradi. Nizomni amaliyotga muvaffaqiyatli joriy etish uchun tartibga soluvchi organ tartibga solish, moliyaviy qo'llab-quvvatlash va bozor ishtirokchilarini o'qitishni birlashtirgan holda jarayonga kompleks yondashuvni amalga oshirishi kerak. Nizomni amalga oshirish davlat, biznes va jamiyatning kuchli integratsiyalashuvini taqozo etadi hamda uzoq muddatli istiqbolda o'zbek to'qimachilik mahsulotlarining xalqaro bozorlarda raqobatbardoshligini oshiradi.

Yashil marketing modeli konsepsiya sifatida atrof-muhit va barqaror amaliyotlarni kompaniyaning marketing strategiyasiga integratsiyalashga qaratilgan bo'lib, u bir nechta asosiy tarkibiy qismlardan iborat (2-rasm).

2-rasmda yashil marketing modelining tuzilmasi keltirilgan bo'lib, mazkur tuzilma yashil marketing strategiyalarining mazmunini to'liq yoritib bermaydi. Shuningdek, xorijiy kompaniyalar tomonidan yashil marketing strategiyalaridan

⁷ Muallif ishlanmasi

aynan to‘qimachilik mahsulotlari bozorida qanday foydalanganligi anglash va uni milliy to‘qimachilik korxonalarida misolida amaliyotda qo‘llash muhim ahamiyatga ega.



2-rasm. Yashil marketing modeli tuzilmasi⁸

Tadqiqot ishi doirasida bir qancha xorijiy kompaniyalarning yashil marketing strategiyalaridan foydalanish tajribasi ham tahlil qilingan bo‘lib, bir qancha keyslar yoritib berilgan. Xususan, Patagonia, Amerika kiyim-kechak kompaniyasi o‘zini moda sanoatida barqarorlik va ekologik mas’uliyat sohasida yetakchi sifatida namoyon etib, yashil marketingga innovatsion yondashuvlari uning global obro‘si va muvaffaqiyatiga sezilarli hissa qo‘shgani tahlil qilingan. Patagoniya strategiyasi 3 ta asosiy ustunga qaratilgan: yashil marketing orqali barqarorlikni targ‘ib qilish, talabni boshqarish uchun yashil demarketingdan foydalanish va o‘z faoliyati davomida barqaror biznes amaliyotlarini (SDG) joriy etish.

Yana bir xorijiy kompaniya misoli sifatida Stella McCartney kompaniyasi keltirilgan bo‘lib, barqarorlik va atrof-muhitga mas’uliyatga sodiqligi uchun kuchli obro‘ga ega kompaniyalardan biri ekanligi ta’kidlangan. Brendning yashil marketing strategiyalari, ayniqsa, to‘qimachilik mahsulotlarini eksport qilishda, boy iste’molchilar orasida jozibadorligini saqlab qolish bilan birga, barqarorlikni ta’minlash bo‘yicha kengroq maqsadlarga erishishga mo‘ljallangan. Stella McCartneyning yondashuvi bir nechta asosiy strategiyalar, jumladan, integratsiyalashgan marketing kommunikatsiya-lariga, Barqaror rivojlanish maqsadlaridan (SDGs) va biofil dizayn tamoyillaridan foydalanishga asoslangan.

Dissertatsiyaning ikkinchi bobi **“To‘qimachilik mahsulotlari bozorida yashil marketingdan foydalanish holati”** deb nomlanib, bu bobda O‘zbekistonda to‘qimachilik sanoatining iqtisodiy holati va sohadagi muammolar tahlili, to‘qimachilik sohasida faoliyat yuritayotgan milliy korxonalaridan biri **“Hamza Expo Art Textile”** MChJning iqtisodiy ko‘rsatkichlari, mamlakatda to‘qimachilik sanoatining rivojlanish evolyutsiyasi, yashil branding va reklama strategiyalaridan foydalanishning korxonada eksport ko‘rsatkichlariga ta’siri o‘rganilgan.

⁸ Muallif ishlanmasi

O‘zbekistonda to‘qimachilik sanoati yildan-yilga shiddat bilan rivojlanmoqda. Ayniqsa, so‘nggi yillarda mamlakatda to‘qimachilik sanoatiga e‘tibor kuchaygani kuzatilmoqda. 2024-yil avgust oyi holatiga O‘zbekistonda deyarli 6000ga yaqin to‘qimachilik korxonalari faoliyat yuritmoqda. Umuman, rivojlanish va o‘shish ko‘rsatkichlarini mamlakat iqtisodiyotining deyarli barcha sohalarida kuzatish mumkin. 2023-yilda 8,2 milliard AQSh dollari miqdorida to‘qimachilik va tikuv-trikotaj mahsulotlari ishlab chiqarilgan bo‘lib, bu yetti yil avvalgiga nisbatan 4,2 barobar ko‘p hisoblanadi. Bugungi kunda 6 mingdan ortiq korxonada 570 ming kishi ish bilan ta‘minlangan.

Tekstil sanoatida xalqaro sertifikatlar Yevropa bozorlariga eksport hajmini oshirishda muhim ahamiyatga ega. To‘qimachilik korxonalari uchun xalqaro standartlar joriy etilishi mamlakatlar o‘rtasidagi savdo aloqalarining rivojlanishini rag‘batlantiradi, xalqaro savdodagi to‘siqlarni bartaraf etadi, boshqaruv va nazorat tizimini takomillashtirish doirasida biznes evolyutsiyasiga ijobiy ta‘sir ko‘rsatadi. Xalqaro standartlarga ega korxonalar soni ko‘payishi mehnat va atrof-muhitni muhofaza qilish, xomashyo va energiya resurslaridan tejamkor foydalanish, mahsulotlarni saqlash, qadoqlash, markalash, tashish talablarini tartibga solishga ijobiy ta‘sir ko‘rsatadi. 2022-yil iyul oyi holatiga ko‘ra, “OEKO-TEX Standard 100” sertifikatiga ega korxonalar soni 71 ta, “BSCI” 13 ta, “Sedex” 11 ta, “GOTS” 6 ta va “OCS” 2 ta, ISO 1200 taga yetgan. Jumladan, tadqiqot obyekti – “Hamza Expo Art Textile” mas‘uliyati cheklangan jamiyatida OEKO-TEX Standard 100 sertifikatidan yillar davomida doimiy foydalanib kelinadi.

2-jadval ma‘lumotlaridan kelib chiqib xulosa qilinsa, korxonaning 2023-yildagi eksport mahsulotlari ko‘rsatkichlari 2022-yilga nisbatan deyarli bir baravarga kamaygan bo‘lsada, 2024-yilning 1-choragining o‘zida kalava ip mahsulotlari eksporti 2022-yildagi maksimum natijadan qariyb 300 ming AQSh dollariga yoki deyarli 46 foizga o‘shishi kuzatilgan. Shunda korxonada tomonidan eksport ko‘rsatkichlari 2024-yil 1-choragida oldingi ikki yillik natija bilan deyarli bir xil ko‘rsatkichni qayd etgan.

2-jadval

“Hamza Expo Art Textile” MChJ ning eksport ko‘rsatkichlari⁹

Eksport mahsulotlari	Eksport hajmi (AQSh dollarida)		
	2022-yil	2023-yil	2024-yil
Kalava ip mahsuloti	599 789,30	296 500,00	873 105,55
Mato	2 077 293,34	1 535 454,50	1 554 796,75
Eko sumkalar	1 024 158,76	1 442 891,38	1 206 928,70
Jami	3 701 241,40	3 274 845,88	3 634 831,00

Shuningdek, xuddi shunday tendensiya eksport mahsulotlari geografiyasida ham kuzatilgan. 2023-yilda mamlakatlarga eksport qilingan mahsulotlar ko‘rsatkichi

2022-yilga nisbatan kamaygan bo‘lsa-da, 2024-yil 1-choragida o‘tgan yillarning yillik ko‘rsatkichiga teng miqdorda mahsulotlar eksport qilingan (3-jadval).

⁹ “Hamza Expo Art Textile” MChJ ma‘lumotlari

“Hamza Expo Art Textile” MChJ ning eksport geografiyasi¹⁰

Eksport geografiyasi	Eksport hajmi (AQSh dollarida)		
	2022-yil	2023-yil	2024-yil
Polsha	2 714 470,38	2 652 494,18	1 858 350,32
Xitoy Xalq Respublikasi	-	-	584 723,36
Rossiya Federatsiyasi	986 771,4	622 351,80	1 191 757,32
Jami	3 701 241,78	3 274 845,98	3 634 831,0

O‘zbekiston yuqorida keltirilgan sertifikatlashtirish muammosidan tashqari to‘qimachilik sanoati rivojlanishiga to‘sqinlik qiluvchi va jahon bozorida raqobatbardoshligini cheklovchi quyidagi qator muammolarga duch kelmoqda:

1. Yuqori qo‘shilgan qiymatli mahsulotlarning past ulushi. O‘zbekiston to‘qimachilik mahsulotlari eksportining asosiy qismi paxta iplari singari past qo‘shimcha qiymatga ega mahsulotlardir. Bu salohiyat eksport tushumlarini kamaytiradi va mamlakatni tovar narxlarining o‘zgarishiga qarshi himoyasiz qiladi. 2023-yilda 6000 ta korxonadan atigi 175 ta korxonalar rivojlangan bozorlarga chiqish uchun zarur bo‘lgan xalqaro standartlarga javob berdi, bu esa yuqori qo‘shimcha qiymatli mahsulotlar eksportini ham cheklaydi.

2. Xomashyodan foydalanish bilan bog‘liq muammolar. O‘zbekistonda yiliga 3-4 million tonnaga yaqin paxta tolasi ishlab chiqarilsa-da, bu ko‘rsatkich to‘qimachilik sanoatining ichki talabini qondirish uchun yetarli emas. Ishlab chiqaruvchilar sifatli xomashyo taqchilligi va paxta maydonlarining hosildorligini oshirish zaruratiga duch kelmoqda. Bundan tashqari ustiga paxtachilik sanoatiga klaster tizimi joriy etilganidan buyon fermer xo‘jaliklari va klasterlar o‘rtasida ko‘plab ziddiyatlar kelib chiqayotgani ham xomashyoni vaqtida ishlab chiqarish manzillariga yetib bormasligiga sabab bo‘lmoqda.

3. Texnologik daraja va standartlashtirishni yaxshilash zarurati:

Xalqaro investitsiyalarni jalb qilish va yangi bozorlarga chiqish uchun to‘qimachilik korxonalarida yangi texnologiyalarni joriy etish va xalqaro standartlar bo‘yicha sertifikatlashdan o‘tishi kerak. Biroq standartlashtirish jarayoni sust va ko‘pgina korxonalar hali bunga tayyor emas, bu ularning Yevropa va boshqa rivojlangan bozorlarga chiqish imkoniyatlarini cheklaydi.

4. Moliyalashtirish bilan bog‘liq muammolar. Ko‘pgina korxonalar ishlab chiqarish quvvatlarini modernizatsiya qilish va raqobatbardoshlikni oshirish uchun zarur bo‘lgan arzon moliyalashtirishni olishda qiyinchiliklarga duch kelmoqda. Bu ishlab chiqarish va eksportni kengaytirish imkoniyatlariga sezilarli ta‘sir qilmoqda.

Bunday muammolarni hal qilish uchun O‘zbekiston hukumati to‘qimachilik sanoatini rag‘batlantirish, jumladan, xalqaro sertifikatlar olish, innovatsion texnologiyalarni joriy etish, yangi ish o‘rinlarini yaratish va moliyalashtirish imkoniyatlarini yaxshilashda qo‘llab-quvvatlash choralari ko‘rmoqda. Biroq mavjud to‘siqlarni to‘liq bartaraf etish uchun hukumatdan ham, xususiylardan ham qo‘shimcha harakatlar talab etiladi.

¹⁰ Oldingi iqtibosga qarang

Iste'molchilarning ekologik xabardorligini oshirish bilan ko'pgina brendlar, to'qimachilik ishlab chiqaruvchilari, tikuvchilik ishlab chiqaruvchilari va sotuvchilari o'z mahsulotlarini sotishda "ekologik toza", "toksik bo'lmagan", "tabiiy" atamalaridan (eko-brening strategiyasidan) foydalanadilar.

Eko-brening strategiyasining yuqorida keltirilgan komponentlari asosida korxonalarda eko-brening strategiyasini joriy etish bosqichlari quyidagilardan iborat: dastlabki baholash, barqarorlik maqsadlarini belgilash, yashil strategiyani ishlab chiqish, mahsulot dizayni va qadoqlash, eko-brend aloqasi, yashil iste'molchilarni jalb qilish, doimiy takomillashtirish va innovatsion yondashuvlarni tashkil qiladi.

Korxonalar tomonidan qo'llanilishi mumkin bo'lgan eko-reklama strategiyasi ham taklif etilgan. Yashil reklama ekologik manfaatlar yoki barqarorlikni ta'kidlaydigan xabarlar orqali mahsulotlar, xizmatlar yoki brendlarni targ'ib qilish amaliyotini anglatadi.

Umuman, mazkur strategiyalar va bosqichlarga rioya qilish orqali "Hamza Expo Art Textile" mas'uliyati cheklangan jamiyati xalqaro bozorlarda o'z obro'si va jozibadorligini oshiruvchi ta'sirchan yashil reklama kampaniyalarini yaratishi, uning natijasida korxonaning eksport ko'rsatkichlari oshishi va yashil brend imijini shakllantirishi mumkin.

O'zbekistonda yashil marketing strategiyalaridan foydalanish nihoyatda dolzarb bo'lsa-da, bunga erishgan kompaniyalarni yaqqol ajratib ko'rsatish qiyin. Mamlakatning milliy iqtisodiy rejalarida belgilab qo'yilgan barqaror rivojlanish maqsadlari ekologik biznes amaliyotlarining zudlik bilan joriy etilishini nazarda tutadi. Shuningdek, O'zbekistonning strategik geografik joylashuvi hamda paxta xomashyosining yuqori sifatli ekanligi Osiyo, Yevropa va Yaqin Sharqdagi asosiy eksport bozorlariga kirish imkonini beradi va barqaror to'qimachilik mahsulotlariga talab ortishini ta'minlaydi.

Yashil marketing strategiyalaridan foydalanish to'qimachilik mahsulotlarini sotish yoki eksport qilishda qanchalik ahamiyatli ekanligi va haqiqatda bu strategiya kompaniyaga ijobiy imij hamda moliyaviy ko'rsatkichlar yaxshilanishini o'rganish maqsadida ekonometrik tahlilga murojaat qilingan. O'zbekistonda mavjud to'qimachilik korxonalarida yashil marketing strategiyalaridan foydalanish holati deyarli kuzatilmaganligi bois empirik tahlil xorijiy mamlakatlarda yashil marketing strategiyalaridan foydalanuvchi kompaniyalar misolida amalga oshirilgan.

To'qimachilik korxonalarida yashil marketing strategiyalarining eksport samaradorligi va unga ta'sir qiluvchi turli omillar ta'sirida shakllanadi. Mazkur omillar sifatida quyidagilarni keltirib o'tish mumkin:

- eko-brendlarning ko'payishi;
- eko-reklama faoliyati va unga sarflanadigan mablag'ning ortishi;
- eko-sertifikatlangan mahsulotlarning ko'payishi;
- eko-mahsulotlar sonining ortishi.

Biroq mamlakatlar doirasida keltirilgan omillarning korxonalar eksportini oshirishga ta'siri turlicha hisoblanadi. Shunga asoslangan holda eksport salohiyatini oshirishning strategik imkoniyatlari aniqlash uchun tangan omillarning eksport rivojlanishiga ta'sirini o'rganish talab etiladi.

To'qimachilik kompaniyalari yashil marketing strategiyalarining eksport samaradorligiga ta'sirini har tomonlama baholash uchun mazkur tadqiqotda ko'p o'zgaruvchili regressiya modelidan foydalanilgan. Bunday tahliliy yondashuv bir nechta mustaqil o'zgaruvchilarning yagona bog'liq o'zgaruvchiga bir vaqtda ta'sirini baholash uchun tanlangan bo'lib, bu eksport o'sishini ta'minlovchi omillarni yanada chuqurroq tushunish imkonini beradi. Asosiy maqsad eko-branding, eko-reklama, eko-sertifikatlar va ekologik toza mahsulotlar sonining eksport samaradorligiga ta'sirini miqdoriy jihatdan baholashdan iborat.

Mazkur tadqiqot ishining regression modeli quyidagicha ifodalanadi:

$$Y = \beta_0 + \beta_1 X_1 + \beta_2 X_2 + \beta_3 X_3 + \beta_4 X_4 + \epsilon \quad (1)$$

Ushbu modelda, Y – to'qimachilik kompaniyalarining eksport samaradorligini ifodalaydi va bu eksport hajmi yoki daromad kabi ko'rsatkichlar orqali o'lchanadi.

X_1 - X_4 – mustaqil o'zgaruvchilar: eko-branding (X_1), eko-reklama (X_2), eko-sertifikatlar (X_3) va eko-mahsulotlar soni (X_4), ϵ – standart xatolik koeffitsienti.

